

MAKTABLARDA KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH ISHLARINI OLIB BORISHDA TEXNOLOGIYA FANINING O‘RNI

Axmedova Gulchehra Mannonovna¹, Yusupov Doston Baxtiyorovich²

¹*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Texnologik ta'lim kafedراسi katta o'qituvchisi,*

²*Jizzax shahar 29-maktab Texnologiya fani o'qituvchisi*

e-mail: gulchehrag1966@gmail.com

*Аnnotatsiya.*Maqolada maktab ta'limining hozirgi bosqichida o'quvchilarni mehnatga tayyorlash, o'sib kelayotgan avlodning ta'lim va tarbiyasidagi eng zarur masalalari o'rganib chiqilgan.

Калит so'zlar: Texnologiya, kasb-hunar, ta'lim-tarbiya, yo'l-yo'riq, kasbiy tayyorgarlik, kasbga yo'llash.

*Аннотация.*В статье рассматриваются наиболее необходимые вопросы в обучении и воспитании подрастающего поколения, подготовке учащихся к труду на современном этапе школьного образования.

*Ключевые слова:*Технология, профессиональное обучение, образование, дорога, профессиональное обучение, профессиональная подготовка.

*Annotation.*The article examines the most necessary issues in the training and education of the growing generation, preparing students for labor at the current stage of school education.

Key words: Technology, vocational training, education, road, vocational training, vocational training.

Bugungi kunda jamiyatimiz uchun har tomonlama rivojlangan fan-texnika taraqqiyotini hayotga tadbiiq eta oladigan yetuk malakali kadrlar tayyorlash masalasi turibdi.

Maktab ta'limining hozirgi bosqichida o'quvchilarni mehnatga tayyorlash, o'sib kelayotgan avlodning ta'lim va tarbiyasidagi eng zarur masalalardan biridir.

O'quvchilarni kasb-hunarga qiziqishini tarbiyalashda insoniyat mehnat faoliyati tarixini o'rgatuvchi omillarga tayanib, o'quvchilarni kelajakda to'g'ri kasb tanlashlariga ulkan zamin yaratilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Texnologik ta'limning asosiy maqsadi - maktab o'quvchilarini ijtimoiy ahamiyatga molik ishlab chiqarish mehnatiga tayyorlashdan iboratdir. Bu o'quvchilarni mehnat turlariga qiziqishini oshirish, kasb tanlash va o'zlashtirishni shakllantirib borish uchun pedagoglar zimmasiga o'quvchilarga yoshligidan boshlab ta'lim, tarbiya berish bilan birga kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yishdan iborat.

Maktabda o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning o'zi ancha murakkab ishdir. Bu masalani amalga oshirish ham o'z navbatida o'qituvchilardan yanada

katta kuch va pedagogik mahorat sarflashni talab qiladi. Buning ustida o'quvchilarni aniq kasblardan birini o'rganib shu kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat faoliyatlarini kelajakda boshlashlari ko'zda tutiladi. Ta'lim-tarbiya va kasb-hunar yo'nalishidagi masalalarni birgalikda olib borishlari ancha murakkab ish bo'lsa ham, bu ishni bajarish zamon talabiga aylanmoqda. Sodir bo'ladigan qiyinchiliklarni yo'l-yo'lakay o'rganib, ularni bartaraf qilishga to'g'ri keladi. Buni bajarishni tegishli mutaxassislar amalga oshirib boradilar. Matbuotlarda o'rta maktab o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish masalalarini 1-sinfdan boshlab, ta'lim-tarbiyani va o'qitishni kasbga yo'naltirish bo'yicha olib borishni maslahat bermoqdalar. Bu haqida biz o'z fikrlarimizga va pedagogik tajribalarimizga tayangan holda, shuni ma'lum qilamanizki, kasbga yo'naltirish masalasini boshlang'ich sinfdan boshlab olib borishni, ayniqsa hozirgi vaqtda amalga oshirish ancha murakkab ishdir va bu ko'plab qiyinchiliklarni paydo qiladi deb o'ylaymiz.

Texnologik ta'limning tarkibini belgilaydigan omillardan biri – maktab o'quvchilarining amaliy mashg'ulotlar jarayonida ta'lim-tarbiyani qo'shib olib borish jarayoni hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologik ta'lim 2 bosqichdan iborat:

- 1) dastlabki tayyorgarlik (1-4-sinflar);
- 2) kasb-hunar ta'limi (5-9-sinflar).

Boshlang'ich sinflarda mehnatga dastlabki tayyorgarlik bo'lsa, yuqori sinflarda – mutaxassislik bo'yicha mashg'ulotlar o'tiladi.

Kasb-hunar ta'limi bosqichi umumiy rivojlantiruvchi yo'nalishga ega. Texnologik ta'limni olib borishning 2-bosqichida, ya'ni 5-9 sinflarda kasb-hunarga yo'naltirish ishlari olib boriladi.

Maktabda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini olib borish asosan texnologiya fani o'qituvchilariga zimmasiga tushadi. Maktab o'quv ustaxonalari moddiy ta'minotining sustligi, maktablarning zamonaviy ishlab chiqarishdan ajralib qolganligi texnologik ta'lim darajasini pasaytiradi.

Texnologik ta'limni olib borishda o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini uch bosqichdan iborat deb olishimiz mumkin:

- 1) dastlabki tayyorgarlik;
- 2) kasb-hunar tanlash;
- 3) kasbga yo'llash.

Dastlabki tayyorgarlik bosqichi hozirgi davrda 1-4-sinflarning texnologiya darslarining qo'l ishlarini bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni mehnatga tayyorlash ularning qiziqishlari, moyilliklar va imkoniyatlariga asoslangan qo'l mehnati hisoblanadi. Shu munosabat bilan mehnat ta'limi jarayoni o'quvchilarda ushbu yosh uchun bilim, mehnat, axloqiy, estetik iqtisodiy-ekologik va aqliy imkoniyatlarni aniq mehnat jarayonlarida

rivojlantirishga qaratilgan, natijada ularni mehnatga tayyorlashni qoʻl mehnati jarayonida bolalar asosan ishlab chiqarish texnologiyalar chiqindilari (qogʻoz, karton, sim, yogʻoch, gazmol va boshqalar) bilan tabiiy va sunʼiy xom ashyolar (maxsus loy, yogʻoch va plastmassalar, plastilin, yelim va boshqalar) bilan ishlash keyingi sinflarda davom ettirilishi uchun zarur aloqadorlik hosil qiladi.

Kasb-hunar tanlash bosqichida, maktab sharoitini hisobga olib, yaqin atrofdagi ishlab chiqarish korxonalarida tegishli mutaxassis kadrlar etishmasligiga qarab, shunday kadrlarga muhtojliklarini hisobga olib, kasb-hunar sinflari ajratilishi lozim. Bu sinflarga mos darsliklar 7-8-9-sinflar boʻyicha ham birin- ketin oʻrta taʼlim bilimlarini qamrab olishi kerak.

Kasbga yoʻllash bosqichida, tashkil qilinadigan kasbga yoʻnaltiruvchi sinflar yoʻnalishi umumiy soni 20-25 koʻrinishdan iborat boʻlishi mumkin, yoki undan ham koʻproqdir. Kasb yoʻnalishidagi sinflar qancha yoʻnalishda qabul qilingan boʻlsa, ularni toʻliq tashkil qilib amalg oshirilishi kerak. Baʼzi bir maktablarda tashkil qilingan kasb yoʻnalishidagi sinflarda oʻquvchilar soni oz boʻlishi mumkin. SHunday paytlarda qoʻni- qoʻshni, yaqin maktablardan tegishli oʻquvchilarni qabul qilib toʻldirish mumkin. Agar oʻquvchilarni uylari maktabdan sal uzoqroqda joylashgan boʻlsa, ularga maktab quchogʻidan alohida yotoqxonalar ajratish maqsadga muvofiqdir. Ularni maktab hisobidan ovqatlantirish koʻzda tutiladi. Bunday qiyinchiliklar oʻquvchilarning oʻqishlariga salbiy taʼsir koʻrsatmasligi kerak.

Kasb-hunarga yoʻnalishida ajratiladigan sinflarda, yaʼni 8-9 sinflarda oʻquvchilar oʻqishlarini davom ettirib, tanlangan kasbning etuk mutaxassislari boʻlib yetishishlari, soʻngra tegishli kasb-hunar maktablari, kollej, texnikum, litsey sohalarining birida oʻqishini davom ettirib, tanlangan kasbining sir-asrorlarini ongli tarzda oʻrganishga kirishadilar. Oʻrganayotgan fanlarning mazmunini ongli tarzda tushunish, har bir oʻquvchi shu tanlangan sohaning hayot talablari asosida kelib chiqqanligini ham tushunib, oʻrganib boradilar. Oʻrta maktablarni bitirish arafasida tegishli kasb boʻyicha oʻzini etuk bilimdon deb hisoblab, bu kasbning ichki sirlarini yanada chuqurroq oʻrganishga kirisha boshlaydilar. Oʻrta maktab taʼlim-tarbiyasi bilan keyingi bosqichlarda olib boriladigan taʼlim-tarbiya masalalari oʻrtasida uzluksiz bogʻlanishlar paydo boʻla boshlaydi. Natijada bular ikkalasida ham uzluksiz kasb-hunar taʼlimni vujudga keltiradi. Oʻquvchilar bu taʼlim-tarbiyadan erkin foydalanib borishlaridan tegishli imkoniyatlar vujudga kela boshlaydi. Kasb-hunar yoʻnalishi yanada ochiqroq boʻla boshlaydi, unda oʻqishga chin koʻngildan kirishib, oʻqishlarini maqsadli tarzda davom ettirishga intiladilar. Shunda kasb-hunar yoʻnalishini toʻgʻri tanlab, unga oʻqishga kirishib, maqsadli tarzda chuqurroq oʻrganishga kirisha boshlaydilar.

Shunday qilib, yuqorida aytib o'tganimizdek, maktab o'quvchilarining kasb-hunarni to'g'ri tanlashi bugungi kunda jamiyatimiz uchun har tomonlama rivojlangan fan texnika taraqqiyotini hayotga tadbiiq eta oladigan yetuk malakali kadrlar tayyorlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent: O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002. 12 b.
2. Boltaboyev S.A. Tolipov U. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. Toshkent 2000.
3. O'quvchilarning psixologik-pedagogik diagnostika o'tkazish mintaqaviy (viloyat, tuman, shahar) kasbga yo'naltirish markazlarini tashkil qilish to'g'risidagi namunaviy Nizomi. Toshkent, 2002.
4. Mamajonova, K. (2020). Ўқувчиларни касб-хунарга йўналтиришдаги таълим-тарбия тизимида педагогик технологиялардан фойдаланиш зарурияти. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
5. Mamajonova, K., & Xolmatov, P. (2020). Kasb-hunarga yo'llash ishlarini tashkil qilishda darsdan tashqari mashgulotlar shakllari va mazmunini tanlashning tashkiliy-pedagogik mezonlari. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
6. Xolmatov, P., & Оришев, Ж. (2020). Умумий ўрта таълим мактабларида ўқувчиларни касб-хунарга йўналтиришни такомиллаштириш технологияси. *Физико-технологического образования, 1(1)*
7. Ismailov T.J, Tagaev X, Kholmatov P.K, Yusupov K.Y, Alkarov K.Kh, Orishev Zh.B Karimov O.O. (2020). Cognitive-Psychological Diagram Of Processes Of Scientific And Technical Creativity Of Students. *International Journal of Advanced Science and Technology, 29(08), 3669-3677*.
8. Axmedova, G. (2020). Ўқувчиларни касб хунарга йўналтиришдаги таълим тарбия тизимида педагогик технологиялардан фойдаланиш зарурияти. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
9. Axmedova, G. (2020). Олий таълим тизимида таълим жараёнини иктисодий жихатдан ташкил қилишнинг айрим муаммолари. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
10. Orishev, Jamshid (2021) "Project for training professional skills for future teachers of technological education," *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal: Vol. 2021 : Iss. 2 , Article 16*.